




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarilishi (2020-yil yanvar-aprel)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd.so'm, o'zgarish sur'ati, % da



B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqaradigan sanoat

D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimiz korxonalaridan 17 332,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 101,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 81,0 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 25,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,0 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 12,5 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 46,4 % ga pasayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020 - yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 971,2 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,4 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14 047,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,0 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2019 yil yanvar-aprel oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,6 % (6,7 %), o'rta-quyi texnologiyali - 86,9 % (84,8 %) va quyi texnologiyalisi - 7,1 % (8,2 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,7 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 102,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 80,3 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,2 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,9 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, <i>ming tonna.</i>	1 055,0	1 076,0	102,0
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, <i>tonna.</i>	15 376,0	19 740,0	128,4
Ammoniy nitrat, <i>ming tonna azod</i>	64,74	84,14	76,9
Natriy gidroksidi (kaustik soda), <i>ming tonna.</i>	6,17	16,43	266,3
Kislorod, <i>ming m³.</i>	46,25	47,11	98,2
Temir beton, <i>tonna.</i>	15 504,4	11 078,4	71,5
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), <i>tonna.</i>	183,78	148,34	80,7
Ishlov berilgan suyuq sut, <i>tonna.</i>	389,5	355,5	91,3

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, portlandsement (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 102,0 %), hamda kaustik soda (2,7 m.) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2019 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 76,9 %) mahsuloti ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 300,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,5 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 25,0 % ga oshganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	3 368,1	4 192,8	824,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 551,47	1 528,09	-23,38



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1% ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Yirik sanoat korxonalaridan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasidagi bajarilgan ishlar hajmi

	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	5 251,3	6 363,0	1 111,7
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1,2	9,3	8,1
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	8 509,0	7 364,4	-1 144,6



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 957,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino - aroq mahsulotlari va pivo 0,01 % (2019-yil yanvar-aprel oylarida 0,01 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 31,7 % ni, shuningdek, Karmana tumani 18,4 % ni, Xatirchi tumani 13,7 % ni, Qiziltepa tumani 12,4 % ni hamda Nurota tumani 5,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (103,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahar (112,6 %) hamda Karmana tumanida (105,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	957,9	100,0	103,6
Navoiy sh.	303,3	31,7	112,6
Zarafshon sh.	57,6	6,0	98,7
<i>tumanlar</i>			
Karmana	176,0	18,4	105,0
Konimex	20,3	2,1	96,6
Qiziltepa	118,5	12,4	101,1
Navbahor	61,4	6,4	96,8
Nurota	53,4	5,5	97,2
Tomdi	8,6	0,9	96,8
Uchquduq	27,8	2,9	96,9
Xatirchi	131,0	13,7	96,9

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 26,0 %, shuningdek, Qiziltepa tumani 18,1 % ni, Xatirchi tumani 18,0 % ni, Karmana tumani 12,4 % ni hamda Navbahor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahriga (102,0 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	406,9	100,0	98,1
Navoiy sh.	105,7	26,0	102,0
Zarafshon sh.	32,6	8,0	99,0
<i>tumanlar</i>			
Karmana	50,4	12,4	99,9
Konimex	12,1	3,0	94,1
Qiziltepa	73,7	18,1	99,4
Navbahor	35,2	8,6	94,0
Nurota	2,7	0,7	95,0
Tomdi	5,0	1,2	93,9
Uchquduq	16,3	4,0	94,3
Xatirchi	73,2	18,0	93,9

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 35,9 %, shuningdek, Karmana tumani 22,8 % ni, Xatirchi tumani 10,5 % ni, Nurota tumani 9,2 % ni hamda Qiziltepa tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida (119,2 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	551,0	100,0	108,1
Navoiy sh.	197,6	35,9	119,2
Zarafshon sh.	25,0	4,5	98,3
<i>tumanlar</i>			
Karmana	125,6	22,8	107,9
Konimex	8,2	1,5	100,3
Qiziltepa	44,8	8,1	104,1
Navbahor	26,2	4,7	100,9
Nurota	50,7	9,2	96,3
Tomdi	3,6	0,7	101,1
Uchquduq	11,5	2,1	100,1
Xatirchi	57,8	10,5	101,0



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 423,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.




**Navoiy viloyati hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020-yil yanvar-aprel mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	17 332,3	101,0
Navoiy sh.	14 477,5	100,5
Zarafshon sh.	63,0	82,8
<i>tumanlar</i>		
Karmana	1 938,4	127,0
Konimex	106,2	91,2
Qiziltepa	354,3	96,0
Navbahor	154,7	136,4
Nurota	64,9	91,7
Tomdi	9,0	99,1
Uchquduq	30,0	91,8
Xatirchi	134,3	106,2



Navoiy viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatimiz sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Navoiy shahri (viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmning 83,5 %), Karmana (11,2 %), Qiziltepa (2,0 %), Xatirchi (0,8 %), hamda Navbahor (0,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Tomdi (0,1 %) hamda Uchquduq (0,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Navbahor (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 136,4 %), Karmana (127,0 %) Xatirchi (106,2 %), tumanlarida hamda Navoiy (100,5 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.


Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019 yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)





**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-aprel oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 019,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbahor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (57,9 %), Nurota (99,6 %), Tomdi (100,0%), Xatirchi (100,0 %), Uchquduq (100,0 %), Qiziltepa (33,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimizda hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,2 %), Konimex (20,1 %), Karmana (16,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlikda
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatimizda 2 811 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 661 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 23,5 %) Navoiy shahriga, 468 tasi (16,6 %) Karmana tumaniga, 334 tasi (11,9 %) Nurota tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlikda
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra)





2020-yil yanvar-aprel oyida viloyatimizda 259 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 66 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 25,5 %) Xatirchi tumanida, 36 tasi (13,9 %) Karmana tumanida, 35 tasi (13,5 %) Navoiy shahrida, 34 tasi (13,1 %) Zarafshon shahrida, 29 tasi (11,2 %) Qiziltepa tumanida hamda 18 tasi (6,9 %) Nurota tumanida tashkil etildi.

**Navoiy viloyati statistika
boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi**
Tel.: (79) 223-33-29